



**“DORIVOR O‘SIMLIKLAR MARJETINGI MEDIASAVODSIZLIKNING
SOG‘LIQ UCHUN XAVFI”**

Rasulova Nozimaxon

*Qo'qon davlat universiteti tabiiy fanlar va iqtisodiyot fakulteti
biologiya ta'lim yo'nalishi talabasi*

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada dorivor o‘simliklar marketingining kengayib borishi fonida aholining mediasavodlik darajasi pasayishi natijasida yuzaga kelayotgan sog‘liq uchun xavf-xatarlar tahlil qilinadi. Bozor sharoitida dorivor o‘simliklar tabiiy, xavfsiz va barcha kasalliklarga davo sifatida targ‘ib qilinishi ko‘plab iste‘molchilarni ilmiy asoslanmagan ma‘lumotlarga ishonishga undamoqda.*

Baholash, reklama va ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan noto‘g‘ri axborotlar dorivor o‘simliklarning noo‘rin qo‘llanishiga, dozani oshirib yuborishga va o‘z-o‘zini davolash oqibatida yuzaga keladigan asoratlarning ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda.

Maqolada dorivor o‘simliklar marketingi jarayonida yuzaga keladigan manipulyativ strategiyalar, aholining axborotga tanqidiy yondashish kompetensiyasi va sog‘liqni saqlashga oid xavfsiz xulq-atvorni shakllantirish yo‘llari o‘rganiladi. Shuningdek, mediasavodlikni oshirish orqali aholining xabardorligini kuchaytirish, dorivor o‘simliklardan foydalanishda ilmiy va amaliy yondashuvni yo‘lga qo‘yishning dolzarbligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *Dorivor o‘simliklar, Marketing strategiyalari, Mediasavodsizlik, Sog‘liq uchun xavf, Noto‘g‘ri axborot, O‘z-o‘zini davolash, Manipulyativ reklama, Iste‘molchi xulqi, Tibbiy savodxonlik, Axborotning ishonchliligi.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье анализируются риски для здоровья, возникающие в результате снижения уровня медиаграмотности населения на фоне расширения маркетинга лекарственных растений. Продвижение лекарственных растений на рынке как натуральных, безопасных и являющихся панацеей от всех болезней, побуждает многих потребителей доверять ненаучной информации.*

Распространение дезинформации в отзывах, рекламе и социальных сетях приводит к нецелевому использованию лекарственных растений, передозировкам и увеличению осложнений вследствие самолечения.

В статье рассматриваются манипулятивные стратегии, возникающие в процессе маркетинга лекарственных растений, компетентность населения критически относиться к информации и способы формирования безопасного для здоровья поведения. Также обосновывается актуальность повышения осведомленности населения посредством повышения медиаграмотности и формирования научно-практического подхода к использованию лекарственных растений.

Ключевые слова: *Лекарственные растения, Маркетинговые стратегии, Медиаграмотность, Риски для здоровья, Дезинформация, Самолечение,*



Манипулятивная реклама, Потребительское поведение, Медицинская грамотность, Достоверность информации.

ANNOTATION: *This article analyzes the health risks that arise as a result of the decline in the level of media literacy of the population against the background of the expansion of medicinal plant marketing. The promotion of medicinal plants in the market as natural, safe and a cure for all diseases encourages many consumers to trust unscientific information.*

Misinformation spread in reviews, advertising and social networks leads to inappropriate use of medicinal plants, overdose and an increase in complications due to self-medication.

The article examines manipulative strategies that arise in the process of marketing medicinal plants, the competence of the population to critically approach information, and ways to form safe health behavior. It also justifies the relevance of increasing public awareness through increasing media literacy and establishing a scientific and practical approach to the use of medicinal plants.

Keywords: *Medicinal plants, Marketing strategies, Media illiteracy, Health risks, Misinformation, Self-medication, Manipulative advertising, Consumer behavior, Medical literacy, Information reliability.*

Dorivor o‘simliklarga qiziqish ortib borayotgani bilan birga, mediamakon orqali tarqalayotgan noto‘g‘ri reklama va ilmiy asoslanmagan ma‘lumotlar iste‘molchilar orasida xavfli holatlarni yuzaga keltirmoqda. Marketingning manipulyativ usullari — “tabiiy davo”, “yon ta’siri yo‘q”, “har qanday kasallikni davolaydi” kabi shiorlar — aholining dorivor o‘simliklarga haddan tashqari ishonishiga sabab bo‘lmoqda. Mediasavodsizlik tufayli odamlar ma‘lumotni tekshirmasdan qabul qiladi, bloger va anonim sahifalarning tavsiyalariga asoslanadi, natijada o‘z-o‘zini davolash kuchayadi.

Dorivor o‘simliklar ham dorilar singari ta’sir kuchiga ega: ular allergiya chaqirishi, jigar - buyrak faoliyatiga zarar yetkazishi, qon bosimi yoki qand darajasini o‘zgartirishi, kimyoviy dorilar bilan reaksiyaga kirishib xavf tug‘dirishi mumkin. Ayniqsa, doza noto‘g‘ri belgilanganda yoki surunkali kasalligi bo‘lgan odamlarda jiddiy asoratlar kuzatiladi. Bozordagi sifat nazorati sustligi, soxta mahsulotlar va sertifikatlanmagan mahsulotlar savdosi ham xavfni oshiradi.

Muammoni bartaraf etish uchun aholining mediasavodligini oshirish, axborotni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish va dorivor o‘simliklardan foydalanishda shifokor tavsiyalariga rioya qilish zarur. Mediasavodlik oshgan jamiyatda turli reklama manipulyatsiyalari oson ta’sir ko‘rsata olmaydi, sog‘liq uchun xavfli holatlar kamayadi.

Dorivor o‘simliklar – odam va hayvonlarni davolash, kasalliklarning oldini olish uchun, shuningdek, oziq-ovqat, atir-upa va kosmetika sanoatida ishlatiladigan o‘simliklar – giyohlar. Yer yuzida dorivor o‘simliklarning 10–12 ming turi borligi aniqlangan. 1000 dan ortiq o‘simlik turining kimyoviy, farmakologik xossalari tekshirilgan. O‘zbekistonda dorivor o‘simliklarning 700 dan ortiq turi mavjud. Shulardan tabiiy sharoitda o‘sadigan va



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



madaniylashtirilgan 120 ga yaqin o'simlik turlaridan ilmiy va xalq tabobatida foydalaniladi. Hozirgi davrda tibbiyotda qo'llanadigan dori-darmonlarning qariyb 40–47% o'simlik xom ashyolaridan olinadi. O'simliklar murakkab tuzilishiga ega bo'lgan jonli tabiiy kimyoviy laboratoriya bo'lib, oddiy noorganik moddalar-dan murakkab organik moddalar yoki birikmalarni yaratish qobiliyatiga ega. Dorivor o'simliklarning quritilgan o'ti, kurtagi, ildizi, ildizpoyasi, tunganagi, piyozi, po'stlog'i, bargi, guli, g'unchasi, mevas-i (urug'i), danagi, sharbat-i, qiyomi, toshchoyi, efir moylari va boshqalardan doridarmon tarzida foydalaniladi. Dorivor o'simliklarni 2 xil tasniflash qabul qilingan: 1) ta'sir qiluvchi moddalarning tarkibiga qarab: alkaloidli, glikozidli, efir moyli, vitaminli va boshqalar; 2) farmakologik ko'rsatkichlariga qarab: tinchlantiruvchi, og'riqqoldiruvchi, uxlatuvchi, yurak-tomir tizimiga ta'sir qiluvchi, markaziy nerv sistemasini qo'zg'atuvchi, qon bosimini pasaytiruvchi va boshqalar. Dorivor o'simliklarning ta'sir etuvchi moddalari alkaloidlar, turli glikozidlar (antraglikozidlar, yurakka ta'sir etuvchi glikozidlar, saponinlar va boshqalar), flavonoidlar, kumarinlar, oshlovchi va shilliq moddalar, efir moylari, vitaminlar, bo'yoq moddalar, fermentlar, fitonsidlar, kraxmal, oqsillar, polisaharidlar, azotli moddalar, moy hamda moy kislotalari va boshqa birikmalar bo'lishi mumkin.

Dorivor o'simliklarning organizmga ta'siri uning tarkibidagi kimyoviy birikmalarning miqdoriga bog'liq. Bu birikmalar o'simlikning qismlarida turli miqdorda to'planadi. Dorining ta'sirchanlik quvvati hamda sifati yuqori bo'lish davri ularning gullash hamda urug'lash davrining boshlanishi vaqtiga to'g'ri keladi. Dorivor moddalar ba'zi o'simliklarning kurtagi, bargi yoki poyasida, ba'zi o'simliklarning guli yoki mevasida, ba'zilarida ildizi yoki po'stlog'ida to'planadi. Shuning uchun o'simliklarning asosan biologik aktiv moddalari ko'p bo'lgan qismi yig'ib olinadi. O'simliklarning ildizi, ildizpoyasi, piyozi va tunganagi, odatda, o'simlik uyquga kirgan davrda-kech kuzda yoki o'simlik uyg'onmasdan oldin-erta bahorda tayyorlanadi. O'simlikning meva va urug'lari pishib yetilganda yig'iladi, chunki ular bu paytda dori moddalariga boy bo'ladi. Yangi yig'ib olingan dorivor o'simlik mahsuloti tarkibida (yer ustki a'zolarida 85% gacha, ildizida 45% gacha) nam bo'ladi. Bu nam yo'qotilmasa (quritish yo'li bilan), o'simlik chirib, dori moddalari parchalanib, yaroqsiz bo'lib qoladi. Odamlar qadim zamonlardan tabiat ne'matlaridan foydalana boshlaganidan buyen dorivor o'tlardan kasalliklarni davolashda foydalanib kelganlar. Bundan 3—4 ming yil ilgari Hindiston, Xitoy, qadimgi Misr mamlakatlarida shifobaxsh o'simliklar haqida ma'lumotlar beruvchi asarlar yozilgan. Sharqda, xususan O'rta Osiyo xalq tabobatida dorivor o'simliklardan foydalanib davolash o'zining an'analariga ega. Shifobaxsh o'simliklardan tibbiy maqsadlarda foydalanish borasida Abu Ali Ibn Sinoning „Al-qonun“ asarida 476 ga yaqin o'simlikning shifobaxsh xususiyatlari va ularni ishlatish usullari to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi. Hozgi vaqtda dorivor o'simliklarning turi ko'payib, xalq tabobati shifobaxsh o'simliklar bilan boyigan. Dorivor o'simliklardan ko'proq, anor, achchiqmiya, bodom, do'g'buy, dorivor gulxayri, yong'oq, jag'-jag', zubtutum, isiriq, itburun, omonqora, pista daraxti, sachratqi, choyo't, shildirbosh, shirinmiya, shuvoq, yantoq, yalpiz, kiyiko't, tog'rayhon, qizilcha, qoqio't va



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



boshqalari tarqalgan. Achchiqmiyadan paxikarpin, oqquraydan pesni davolashda qo‘llanadigan psoralen, isiriqdan garmin, itsigekdan anabazin, omonqoradan galantamin, shildirboshdan sferofizin va boshqa alkaloidlar olinadi. Anor pustidan gijja haydovchi pelterin tanat va ekstrakt tayyorlanadi. Dorivor gulxayri preparatlari balg‘am ko‘chiruvchi va yumshatuvchi, jag‘- jag‘ va lagoxilusdan tayyorlangan dorilari qon ketishini to‘xtatuvchi, pista bujg‘uni va choyo‘tdan tayyorlangan dorilar me‘daichak kasalliklarini davolashda ishlatiladi. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Botanika instituti va Botanika bog‘ining efir moyli, dorivor va bo‘yoqli o‘simliklar laboratoriya ilmiy xodimlari mutaxassislar bilan hamkorlikda O‘rta Osiyo hududida ko‘p tarqalgan yuqumli kasalliklardan eng xavfli sariq (gepatit)ni davolashda ekologik jihatidan toza, samaradorligi yuqori bo‘lgan dorivor o‘simliklar xom ashyolaridan tayyorlangan „Safro haydovchi Hojimatov yig‘masi“ni yaratdilar va bu yig‘ma ilmiy tibbiyotda qo‘llashga va ishlab chiqarishga ruxsat etildi (1997). Shuningdek, SamDU Botanika kafedrasida, Toshkent davlat farmatsevtika institutida dorivor o‘simliklarni ekib yetishtirish texnologiyasi o‘rganilmoqda. Toshkent, Namangan, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida va Xorazm Ma‘mun akademiyasida dorivor o‘simliklar yetishtiradigan maxsus xo‘jaliklar bor.

Dorivor o‘simliklar (lotincha: *plantae medicinalis*) yovvoyi va madaniy o‘simliklar bo‘lib, profilaktika va davolash uchun ishlatiladi. Odamlar va hayvonlar kasalliklari dorivor o‘simliklar bilan davolash tizimi fitoterapiya[1] deb ataladi. O‘simliklardan dorivor maqsadlarda foydalanish imkoniyati ular qo‘llanadigan dori turiga bog‘liq (rasmiy yoki an’anaviy). Misol uchun, Rossiya sog‘liqni saqlash tizimida faqat dori vositalarining davlat reestriga kiritilgan dorivor o‘simliklardan foydalanish mumkin.

Tarixi Insoniyat rivojlanishining dastlabki bosqichlarida o‘simliklar nafaqat odamlar uchun oziq-ovqat manbai bo‘lgan, balki odamlarga kasalliklardan xalos bo‘lishga yordam bergan. Bizgacha yetib kelgan tibbiy risolalari qazilmalarda topilgan planshetdir. Sumer shahri miloddan avvalgi III ming yillik. Sumer tilidagi 145 qatorda 15 ta retsept nusxa daftarlari berilgan. Ulardan kelib chiqadiki, qadimgi Shumer tabiblari asosan xantal (o‘simlik), archa, qarag‘ay, timyan, tol kabi o‘simliklardan foydalanganlar mevalar olxo‘ri, nok, anjira va boshqalar. Shuningdek, adabiy manbalarda Ossuriya, Misr, Hindiston, Xitoyda eramizdan avvalgi 3000-yillarda dorivor o‘simliklardan foydalanilganligi ham qayd etilgan.

Qadimgi shumerlarning madaniyati va bilimi Bobilyanlar tomonidan meros bo‘lib, ular Licorice, datura, henbane, zig‘ir urug‘i va boshqalar. Bobilliklar quyosh nuri ba‘zi o‘simliklarning shifobaxsh xususiyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishini payqashgan, shuning uchun ularni soyada quritgan va ba‘zi o‘tlar hatto kechasi yig‘ilgan. O‘simliklardan Xitoy, Hindiston, Tibetda keng foydalanilgan. Miloddan avvalgi 3216-yilda. Xitoy imperatori Shennon tibbiyotga oid „Bentsao“ („Gerbalist“) asarini yozgan bo‘lib, uning muhim qismi o‘simliklarni davolash usullarini tavsiflashga bag‘ishlangan. An’anaviy xitoy tabobati 1500 dan ortiq o‘simliklardan foydalangan, eng ko‘p ishlatiladiganlari astragalus, ginseng, zanjabil, dogwood, dolchin, schisandra chinensis, piyoz, qobig‘i mandarin, primrose,



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



miyanyona, qushqo‘nmas , sarimsoq, do‘ppi. „Ayurveda“da (miloddan avvalgi 1-asr) izohlangan qadimgi hind tabobati 800 ga yaqin o‘simliklardan hozirgacha foydalaniladi. Tibet tabobati hind tibbiyoti asosida vujudga kelgan va Tibet tabobatiga oid "Jud shi risolasida dorivor o‘simliklardan foydalanishga bag‘ishlangan katta bo‘lim mavjud. Tibet tibbiyoti uzoq vaqt tasavvuf bilan o‘ralgan edi, lekin 1898-yilda shifokor Badmaev Pyotr Aleksandrovich „Jud shi“ni rus tiliga tarjima qildi, Tibet tibbiyoti idorasini yaratdi. Sankt-Peterburg aholisini Mo‘g‘ulistondan olib kelingan sharq o‘tlari bilan davolashdi. Tibet tibbiyotida 400 ga yaqin dorivor o‘simliklardan[2] foydalaniladi. Avitsenna „Tibbiyot fanining qonuni“ kitobida 900 ga yaqin o‘simliklarning tavsiflari va ulardan foydalanish usullari mavjud. Maxsus Estate shifokorlar va farmatsevtlar paydo bo‘lishi bilan dorivor o‘simliklar haqidagi bilimlar rasmiylashtirildi. Dorivor o‘simliklar va dorivor xom ashyolarga qo‘yiladigan talablar haqidagi ma‘lumotlar farmakopeyada keltirila boshlandi. Birinchi rus tilida „Dorivor o‘tlar bilimi bo‘yicha qo‘llanma“ Bolotov Andrey Timofeevich tomonidan 1781-yilda tuzilgan[3]. Hozirda tibbiyot va farmatsevtika institutlarida o‘quv dasturiga farmakognoziya kursi kiritilgan. Xalq tabobatida norasmiy dorivor o‘simliklar ham qo‘llanadi, ularning assortimenti aniq chegaralarga ega emas va har bir muallif ularni dorivor deb tasniflash mezonlarini o‘zi uchun belgilaydi.

Dorivor o‘tlar tarkibida dorivor xususiyatga ega bo‘lgan kamida bitta faol modda mavjud. Ushbu modda yoki moddalar ko‘pincha o‘simlikning to‘qimalari va qismlari bo‘ylab notekis taqsimlanadi. Shuning uchun, dorivor o‘tlarni yig‘ishda siz foydali elementlarning qayerda to‘planganligini va o‘simlik rivojlanishining qaysi davrida ularning konsentratsiyasi maksimal ekanligini bilishingiz kerak. Dorivor o‘simliklar xomashyosidan foydalanishning asosiy usullari: ichki va tashqi foydalanish uchun dori vositalarini ishlab chiqarish.

Suvli ekstraktlar ichkarida qo‘llanadi: dorivor o‘simlik materiallari yoki preparatlardan infuzion, qaynatma, suvli-spirтли, moyli ekstraktlar damlama (dozalash shakli), ekstraktlar. Sharbat rasmiy o‘simliklarning suvli yangi qismlaridan olinadi. Quritilgan dorivor o‘simlik materiallaridan tibbiyotda kamroq qo‘llanadi chang Tashqi foydalanish uchun: o‘simlik vannasi, o‘rash, losyon, kompres. Rasmiy o‘simliklardan dorivor o‘simlik xomashyosining turli morfologik guruhlarini olinadi: o‘t, gul, barg, ildizpoya, ildiz, meva, urug‘, po‘stloq, kurtak va boshqalar.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, dorivor o‘simliklar marketingining jadal rivojlanishi va mediamakonning cheklanmagan ta‘siri aholining sog‘ligiga bevosita xavf tug‘dirmoqda. Reklama va ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan ilmiy asoslanmagan ma‘lumotlar, manipulyativ shiorlar hamda bloggerlar tomonidan berilayotgan noto‘g‘ri tavsiyalar ko‘plab iste‘molchilarni o‘z-o‘zini davolashga undaydi. Mediasavodsizlik mavjud sharoitda dori vor o‘simliklarning ta‘siri, dozasi va yon ta‘siri to‘g‘risida yetarli bilimga ega bo‘lmaslik sog‘liq uchun jiddiy asoratlar — allergiya, ichki a‘zolar zararlanishi, dorilar bilan to‘qnashuv, kasallikning og‘irlashuvi kabi oqibatlariga olib keladi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Shu sababli dorivor o‘simliklardan xavfsiz foydalanishning asosiy omili — aholining mediasavodligini oshirish, ishonchli manbalarga tayanish, reklama va targ‘ibotlarni tanqidiy baholash hamda shifokor tavsiyasi bilan amal qilishdir. Mediasavodlikning kuchayishi marketing manipulyatsiyalarining ta’sirini kamaytiradi, iste’molchilarning ongli qaror qabul qilishini ta’minlaydi va sog‘liqni himoya qilishga xizmat qiladi.

Dorivor o‘simliklar marketingidagi manipulyativ usullarning kuchayishi, nazoratsiz mahsulotlarning tarqalishi va iste’molchilar o‘rtasida sog‘liq bo‘yicha ilmiy axborot yetishmasligi bu muammoni yanada chuqurlashtiradi. Ayniqsa, shifokorga murojaat qilmasdan o‘zini davolash, blogerlarning maslahatlariga ko‘r-ko‘rona ishonish va internetdagi tasdiqlanmagan retseptlardan foydalanish jamoat salomatligi uchun katta xatar tug‘diradi.

Shu nuqtai nazardan, dorivor o‘simliklardan foydalanish jarayonida mediasavodlikning ahamiyati beqiyosdir. Aholining axborotni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish, noto‘g‘ri va soxta ma’lumotni tanib olish, reklama mazmunini tanqidiy baholash hamda ishonchli ilmiy manbalarga tayangan holda qaror qabul qilish ko‘nikmalari sog‘liqni himoya qilishning eng samarali yo‘llaridan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov, A., Dorivor o‘simliklar farmakognoziyasi. Toshkent: Fan, 2019.
2. O‘rinboyeva, N., Fitoterapiya asoslari. Toshkent tibbiyot akademiyasi nashriyoti, 2020.
3. WHO. Herbal Medicines: Safety Issues and Scientific Standards. World Health Organization, 2021.
4. Barnes, J., Anderson, L., & Phillipson, J. Herbal Medicines. London: Pharmaceutical Press, 2018.
5. Ekor, M. “The growing use of herbal medicines: Issues related to adverse reactions and challenges in monitoring.” *Frontiers in Pharmacology*, 2014.
6. Kotler, P. & Keller, K. *Marketing Management*. Pearson Education, 2022.
7. Potter, W. J. *Media Literacy: Concepts, Skills, and Strategies*. SAGE Publications, 2016.
8. Zokirova, G. “Mediasavodlilik va uning ahamiyati.” *Oliy ta’lim muammolari jurnali*, 2021.
9. Ernst, E. “Toxic heavy metals and undeclared drugs in Asian herbal medicines.” *Trends in Pharmacological Sciences*, 2002.
10. WHO. *Guidelines on Good Agricultural and Collection Practices (GACP) for Medicinal Plants*. World Health Organization, 2003.
11. Hieu, T. N. “Marketing Practices of Herbal Products and Consumer Misconceptions.” *Journal of Health Communication*, 2019.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



12. Qodirov, Sh. O'zbekiston o'simliklari va ularning shifobaxsh xususiyatlari. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.

13. European Medicines Agency (EMA). Herbal Medicinal Products: Scientific Guidelines. EMA Publications, 2020.

14. Hobbs, R. Digital and Media Literacy: Connecting Culture and Classroom. Corwin Press, 2017.

15. Jamshid, M. "Dorivor vositalarning noto'g'ri qo'llanishi va xavfsizlik masalalari." Tibbiyot va amaliyot jurnali, 2022.

